

Katta adron kollayderda o'tkazilayotgan fizik tadqiqotlarga bag'ishlangan konferensiya ochilishi

2018 yil 12 sentyabr kuni "O'zbekiston" mehmonxonasi anjumanlar zalida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zR FA Yadro fizikasi instituti, Samarqand davlat universiteti, Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti (Rossiya, Dubna sh.) hamda Yevropa yadro tadqiqotlari markazi (Shveysariya, Jeneva sh.) hamkorligida tashkil qilingan "Katta adron kollayderida o'tkazilayotgan fizik tadqiqotlar" mavzusidagi Xalqaro konferensiya o'z ishini boshladi.

Konferensiya ishida 9 mamlakatdan 60 dan ortiq olimlar ishitrok etmoqda. Mehmonlar AQSH, Fransiya, Italiya, Shveysariya, Hindiston (17 kishi), shuningdek, Rossiya, Ukraina, Belorusiya kabi hamdo'stlik mamlakatlaridan (45 kishi) taklif qilingan. O'zbekiston olimlarining yadro fizikasi va elementar zarralar fizikasi sohasidagi ilmiy ishlari yuqori mavqega ega bo'lib, jahon ilm-fan ahlida katta qiziqish uyg'otmoqda. Konferensiyada respublikamizning Toshkent, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Jizzax shaharlari ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlaridan ham 30 dan ortiq vakillar qatnashmoqda.

Eslatib o'tamiz, ushbu konferensiya 12-15 sentyabr kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida bo'lib o'tadi.

